

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MA'RUZA

MAVZU: KASB KASALLIKLARI

Babajanov Maqsad

Tayyorladi, Chirchiq tibbiyot kolleji "Maxsus fanlar-5" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Kasb kasalliklari - yomon mehnat sharoitlari va kasbga aloqador zararlarning organizmga ta'siri natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar. Kasb kasalliklarining kechishi unga sabab bo'lgan zararli omillarning o'ziga xosligi, kuchi, davomiyligi va ularning birgalikdagi ta'siriga bog'liq

Reja:

1. Kasb kasalligi haqida
2. Kasb kasalligining kelib chiqish sabablari
3. O'zbekistonda kasb kasalliklarining ro'yxati.
4. Tegishli tavsiyanomalar.

Kalit so'zlar: karlik, vibratsiya kasalligi, nur kasalligi, kesson kasalligi, balandlik kasalligi

Kasb kasalliklari - yomon mehnat sharoitlari va kasbga aloqador zararlarning organizmga ta'siri natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar. Kasb kasalliklarining kechishi unga sabab bo'lgan zararli omillarning o'ziga xosligi, kuchi, davomiyligi va ularning birgalikdagi ta'siriga bog'liq. Kasb kasalliklarining zararli omillarini hisobga olgan holda belgilanadi. Kasb kasalliklarining fizik (kasbga aloqador karlik, vibratsiya kasalligi, nur kasalligi, kesson kasalligi, balandlik kasalligi va boshqalar), biologik (infekcion va parazitarni kasalliklar: brutsellyoz, kuydirgi) va kimyoviy omillar ta'sirida (qarang Zaharlanish), ba'zi changlar uzoq vaqt nafasga olinganda (pnevmonioz, bronxit va boshqalar), shuningdek, jismoniy zo'riqanda yoki shikastlanganda (nevrit, bursit) vujudga keladigan turlari farq qilinadi. Kasb kasalliklarining kelib chiqishiga organizmning o'ta toliqishi va kasallikka qarshi kurash olish faoliyatining pasayishi ham sabab bo'ladi.

O'zbekistonda kasb kasalliklarining ro'yxati va tegishli tavsiyanomalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. I. ch. texnologiyasining takomillashtirilishi, i.ch. jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning keng joriy etilishi, mehnat va dam olishning me'yorida tashkil qilinishi, zararli korxonalarda qisqartirilgan ish kuni



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

belgilanishi tufayli kasb kasalliklari kamayib bormoqda. Kasb kasalliklarini oldini olish, davolash, mexnat muhofazasini tashkil kilish ishlari bilan O‘zbekiston Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti shug‘ullanadi.

Toksiko-kimyoviy omillar ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar.			
I.I.	<p>O'tkir, surunkali zaharlanishlar va ularning asoratlari, bular a'zolarni va tizimlarni alohida yoki birgalikda zararlantiradi.</p> <p>Nafas a'zolarining toksik zararlanihi: rino-faringolaringit, eroziya, burun to'sig'ining teshilishi, traxeit, bronxit, pnevmoskleroz va boshqalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - toksik kamqonlik (anemiya); - toksik gepatit; - toksik nefropatiya; - asab tizimining toksik zararlanihi: polinevropatiya, nevrozga o'xshash holatlar, ensefalopatiya; - ko'zning toksik zararlanihi: katarakta; - kon'yuktivit, keratokon'yuktivit; - suyakning toksik zararlanihi: osteoporoz, osteoskleroz, jag' suyaklari nekrozi. 	<p>Kimyoviy moddalar: xom ashyo, oraliq, qo'shimcha va oxirgi mahsulotlar.</p> <p>Azot kislotasi oksidi, ammiak oksidlari, izotsianatlar, kremniy-organik birikmalar, oltingugurt va uning birikmalari, selen, formaldegid, ftalat angidrid, xlor va uning birikmalari, xrom va uning birikmalari va h.k.</p> <p>Aromatik qator amino-, nitro- va xlor birikmalari, benzol va uning hosilalari, benzol gomologlari, geksametilendiamin, pestitsidlar (xlororganik), qo'rg' oshin va uning noorganik birikmalari va boshqalar.</p> <p>Aromatik qator amino- va nitro-birikmalari: benzol va uning hosilalari (stiro), karbon suvlarining galoid hosilalari, gidrazin va uning birikmalari: pestitsidlar (xlororganik birikmalar, fosfor va uning birikmalari, ftor va uning birikmalari).</p> <p>Beta-naftol: kadmiy, uglerod IV-xlorid</p> <p>Aromatik katorning amino-, nitro- va xlor birikmalari, geksametilendiamin, benzol va uning hosilalari (benzol va uning gomologlari), karbon suvlarning galoid hosilalari, gidrazin va uning birikmalari, marganets, serouglerod, tetraetilqo'rg' oshin va ko'pgina boshqa birikmalar.</p> <p>Trinitrotoluol.</p> <p>Azot kislota, ammiak, azot oksidlari, izotsianatlar,</p>	<p>Sanoatning turli tarmoqlarida, qurilishda, qishloq xo'jaligida, transportda, xizmat ko'rsatish sohasida toksik ta'sir ko'rsatadigan kimyoviy moddalarni olish, qayta ishlash</p>

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceSeries.com

		<p>olingugurt va uning birikmalari, formaldegid, ftor va uning birikmalari, xlor va uning birikmalari va boshqalar.</p> <p>Sariq fosfor va uning birikmalari, ftor va uning birikmalari.</p>	
1.2.	<p>Teri kasalliklari: epidermoz, kontakt dermatit, fotodermatit, onixiya, paranixiya, toksik melanodermiya, yog'li follikulitlar, ekzema.</p>	<p>Neft va uning qayta haydash mahsulotlari (benzin, kerosin, surtma moylar, krezol, lizol, gidron, mazut, asfalt va uning distillatlar) xlorlangan naftalinlar, kislotalar, ishqorlar, organik erituvchilar, gidrosulfit, xlorli ohak, og'ir metall tuzlari, mishyak, surma birikmalari, formalin, yelim va boshqalar.</p>	<p>Kimyo, neftni qayta ishlash, mashinosozlik, metallurgiya, yog'ochni ishlash, teri xom ashyosi, charm, oziq-ovqat sanoati korxonalar; neft tashuvchi kemalarni tozalash; qurilish, mebel yasash korxonalar, shaxtalar quruvchilari va boshqalar.</p>
1.3.	<p>Metaldan paydo bo'ladigan isitma, ftoroplastdan kelib chiqadigan (teflondan) isitma: - allergik kasalliklar; - o'smalar.</p>	<p>Rangli metallar (rux, kumush, nikel, surma va boshqa)ning bug'lanish aerzollari, ikkilamchi polimerizatsiya (ftoroplast) aerzollari. 6-bandiga qaralsin. 7-bandiga qaralsin.</p>	<p>Rangli metallar, plastik massalar (ftoroplast)ni ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash, rangli metallardan yasalgan materiallarni ishlash.</p>
2.	<p>Sanoat aerzollari va changlardan keltirib chiqaradigan kasalliklar.</p>		<p>Tog'-kon va ko'mir sanoati.</p>
2.1.	<p>Pnevmoniozlar: silikoz, silikatoz, silikotuberkulyoz, metallokoniozlar, karbokoniozlar, aralash changdan paydo bo'ladigan pnevmokoniozlar, plastmassalar changidan yuzaga keladigan pnevmokoniozlar.</p>	<p>Ozod va bog'langan holda bo'lgan kremniy (II) oksidini, tarkibida ko'mir tutgan chang (ko'mir, koks, grafit va boshq.) aralash chang: metallar changi va ularning oksidlarini, shu jumladan, payvandlovchi aerzol; organik va sun'iy mineral tolalar, plastmassalar changidan uzoq vaqt nafas olish.</p>	<p>Konlarda, shaxtalarda, boytuvchi va oxiriga yetkazuvchi fabrikalardagi ishlar: ruda jismlari tutmagan xom ashyo va materiallarni tashish va ularga ishlov berish, asbest va boshqa silikatlar, shag'al va h.k.ni tashish va ularni ishlash, asbestotsement va tarkibida asbest saqlovchi materiallar (trubalar, shifer, panellar, taxtalar, fraksion, to'qimachilik ashyolari va boshq.)ni ishlab chiqarish; yong'inga chidamli va abrazivlar ishlab chiqarish va ularni qo'llash, koks, qurum, grafitlar ishlab chiqarish va ularni ishlatish; metallurgiya va quyish sanoati. Mashinosozlik: metallga ishlov berish; payvandlash ishlari; sepiladigan materiallarni yanchish; chang chiqadigan ishlarga aloqador boshqa ishlar va plastmassalar ishlab chiqarish, ularni ishlash.</p>
2.2.	<p>Bissinoz.</p>	<p>Ekinlar (paxta, zig'ir)ning turli changlaridan uzoq vaqt nafas olish.</p>	<p>Paxta, zig'irni to'qimachilik korxonalarida qayta ishlash.</p>
2.3.	<p>Surunkali bronxit (changli, toksik omillar, noqulay ob-havo omillari bilan birga).</p>	<p>Yuqorida nomi zikr etilgan changlarning barcha xillarini, shuningdek o'simlik va hayvonlardan kelib chiqadigan organik chang (un, don, soch, jun, tamaki, qog'oz, shakar va boshqalar)dan uzoq muddat davomida nafas olish. Bir vaqtning o'zida chang va kimyoviy omil (qo'zg'atuvchi moddalar, o'ziyurar tog' mashinalarning is gazi komponentlari va boshqalar)ning salbiy ta'sir etishi.</p>	<p>"Pnevmoniozlar" bandi bo'yicha 4-ustunda ko'rsatib o'tilgan ishlar va quyidagi korxonalar: un-yorma, shakar, jun (paxta va boshqa ekinlarni birlamchi ishlash), shuningdek chang chiqaradigan boshqa ishlar.</p>
2.4.	<p>Surunkali rino-faringolarining: - allergik kasalliklar; - o'smalar</p>	<p>2.2-bandda ko'rsatilgan changlardan uzoq vaqt nafas olish. 6-bandiga qaralsin. 7b degan bandiga qaralsin.</p>	<p>2.2-bandda ko'rsatib o'tilgan ishlar.</p>
3.	<p>Fizik omillar ta'siridan kelib chiqadigan kasalliklar.</p>		



E- Conference Series
 Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3.1.	Ionlashtiruvchi nurlar ta'siriga aloqador kasalliklar: a) nur kasalligi (o'tkir yoki surunkali); b) mahalliy nur kasalliklari (o'tkir yoki surunkali).	Tashqi ionlashtiruvchi nurlarning bir martalik umumiy ta'sir ko'rsatishi yoki radioaktiv moddalar va birikmalarning organizmga tushishi. Kasbiy nurlanish bo'yicha ruxsat etilgan miqdorlardan oshib ketgan ionlashtiruvchi nurlarning muntazam ta'sir etishi. Organizmga kirib o'tadigan nurlarning lokal ta'siri va radioaktiv moddalarning ta'sir etishi.	Radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlar bilan ishlashga doir barcha ishlar.
3.2.	Ionlashtirmaydigan nurlar ta'sir qilishidan paydo bo'ladigan kasalliklar: vegetativ tomir distoniyasi, astenik, astenovegetativ, gipotalamik sindromlar.	O'ta yuqori chastotadagi (O'YUCH) radiodiyapazon elektromagnit nurlarining muntazam ta'sir etishi; kogerent monoxromatik nurlanishlar.	Yuqori chastotali (YUCH) radiodiyapazoni elektr magnit nurlarining manbalari bilan, optik kvant generatorlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlar.
3.3.	To'qimalarning lazer nurlaridan (teri kuyishi, ko'z to'r pardasi va muguz pardasining kuyishi) mahalliy (lokal) zararlanishi.	Lazer nurlarining mahalliy (lokal) ta'siri.	Optik kvant generatorlarini o'rganishga aloqador hamma ishlar.
3.4.	Tebranish (vibratsiya) kasalligi.	Ishchilar qo'llariga o'tadigan ishlab chiqarishdagi mahalliy vibratsiya va ish joyi tebranishining uzoq vaqt muntazam ta'sir ko'rsatishi.	Tebranishni keltirib chiqaradigan va qo'l bilan ishlovchi mashinalar tebranishga sabab bo'ladigan ish joyi.
3.5.	Koxlear nevril.	Ishlab chiqarish shovqinining muntazam ta'sir ko'rsatishi.	Sanoatda, qurilish, qishloq xo'jaligi va transportda ishlab chiqarish shovqinining ta'sir ko'rsatishi.
3.6.	Qo'llarning vegetativ-sensor (angionevroz) yoki sensomotor polinevropatiyasi.	Ultratovushning kontakt yo'li bilan qo'llarga o'tkazilishi.	Ultratovushli defektoskoplar va tibbiy apparatlar bilan ishlash.
3.7.	Elektrooftalmiya.	Ultrabinafsha nurlar bilan jadal nurlanish.	Gaz va elektr payvandlash bilan bog'liq va jadal ultrabinafsha nurlar sharoitidagi ishlar.
3.8.	Katarakta.	Nur energiyasi (infraqizil, ultrabinafsha nurlar) O'YUCH nurlar, rentgen, gammanurlar, neytron, proton nurlanishining muntazam ta'sir ko'rsatishi.	Bosqon-presslash, elektr payvandlash va termik ishlar. Shishadan tayyorlanadigan anjomlar ishlab chiqarish, metallurgiyada infraqizil nurlar ta'sir ko'rsatishiga aloqador, ionlashtirmaydigan nurlar ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ishlar.
3.9.	Dekompression (kesson) kasalligi va uning asoratlari.	Yuqori atmosfera bosimi, dekompressiya jarayonlari.	Kessonlarda, barokameralarda ishlash, atmosfera bosimi oshgan sharoitlardagi ishlar.
3.10.	Issiqlab ketish: issiqlik urishi, talvasali holat (tirishish).	Ish zonasidagi oshgan harorat, jadal issiqlik nurlari.	Chuqur shaxtalarda, quyish, marten, list quyish, trubalar quyish sexlarida ishlash; sanoat pechlarini ta'mirlash, qozonlarni tozalash va ortiqcha haroratda shisha pishirish va boshqa ishlar hududlarida ishlash.
3.11.	Obliteratsiyalovchi endoarteriit, vegetativ-sensor polinevropatiya (angiopatiya), poliradikulonevropatiya.	Ish joylaridagi haroratining pasayganligi.	Baliq tutadigan kemalarda, baliq-go'sht kombinatlarida, sovutgichlarda ishlash, geologik ishlar, yog'och tayyorlash, zax, kon-ruda ishlarida bo'lish, suv ko'p bo'ladigan ishlarda mutlaq yax sharoitlarida ishlash.
3.12.	Onixodistrofiya, mexanik epidermozlar va boshqalar.	Xom teri, charmga ishlov berish, past harorat va ob-havo sharoitlari.	Charm va mo'yna korxonalar, qishloq xo'jalik (dala) ishlari, kemalarda va boshqa korxonalarda baliqni ishlash bilan bog'liq bo'lgan ishlar.
4.	Jismoniy zo'riqishlardan kelib chiqadigan kasalliklar.		
4.1.	Koordinator nevrozlar, shu jumladan, yozuv changagi (spazmi).	Harakatlarning aniq koordinatsiyasini talab qiladigan va tezkorlik bilan bajariladigan ishlar.	Klavishalik apparatlarda va musiqa (cholg'u) asboblariida ishlash; stenografiya, qo'lyozma, matn yozish, chizma chizish, graverli, nusxa ko'chirish ishlari va boshqalar.
4.2.	Periferik asab tizimi va tayanch-harakat tizimining xastaliklari; mono- va polinevropatiyalar, shu jumladan,	Mahalliy (lokal) mushak zo'riqish, bir	Klavishali hisoblash, hisoblash-perforatsion, telefon apparatida, yozuv



E-Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econference.com

	kompression va vegetativ-sensor nevropatiyalari, bo'yin va bel-dumg'aza radikulopatiyalari, surunkali miofibrozlar (miofassitlar, tendovaginitlar, stenozlovchi ligamentozlar, stiloidozlar, "yopilb qoluvchi barmoqlar" va boshqalar), yelka epikondilezlari, yelka-ko'krak periartrozlar, osteoartrozlar, shu jumladan, spondiloartroz, aseptik osteonekrozlar.	maromdagi harakatlar, tez sur'atlar bilan bajariluvchi asab poyalarga, mushaklarga, boylamlarga, tog'aylarga tushadigan tazyiq, ularning shikastlanishi, osig'liq holda ushlab turish, ularni qo'lda ko'tarib ishlatish bilan bog'liq ishlar; gavnani doim engashgan holda tutish, o'zini noqulay ishchi vaziyatda tutish (tizzada, yotib, oldinga engashish, osilib turish vaziyatlari) bilan bog'liq ishlar.	mashinasida ishlash, qo'lda sog'ish, tog' qidiruv, silliqlash, parmalash, ishlov berish, formovka (qoliqlash), oqlash ishlari, katta yuk tashuvchi o'ziyurar, shu jumladan, qishloq xo'jalik mashinalarida ishlash, musiqiy, sirk ishlari, teshadigan va tozalaydigan chuqurlarda, shu jumladan, ob-havosi noqulay bo'lgan sharoitlardagi barcha ishlar).
4.3.	Bachadon va qin devorlarining pastga tushishi va tushib qolishi.	40 yoshga qadar ayollarning noqulay ish vaziyati, vibratsiya yoki uzoq vaqt (10 yil va bundan ortiq) va muntazam ravishda (smenaning 50%dan ortiq vaqti) yuk ko'tarish va uni tashish, bunda tug'ruq davrida chanoq tubi shikastlanmagan bo'lishi kerak.	Yuklarni qo'lda yoki kuch ishlatib tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlar.
4.4.	Yallig'lanish (tromboflebit) yoki trofik buzilishlar bilan asoratlangan oyoqlardagi venalarning varikoz kengayishi.	Oyoqda tik vaziyatda uzoq vaqt turib ishlash.	Uzoq statik zo'riqish, tik turish, muntazam og'ir yuk ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan ishlar. Tog' ishlari, parmalash, mahkamlash va boshqalarda qatnashish. Ayniqsa tik tushadigan qirralarda ishlash.
4.5.	Tovush apparatining o'ta toliqishi bilan bog'liq bo'lgan hollar: surunkali laringit, vazomotor monoxordit, tovush boylamlarining tugunlari ("ashulachilar tugunlari") ovoz boylamlarining yaralari, fonasteniyasi.	Uzoq vaqt mobaynida tovush burmalarining muntazam zo'riqishi.	O'qituvchilik ishi, radio, televideniya diktoralik ishi, aktyorlik ishidagi vokalnutq so'zlash turlari; telefon stansiyalarida ishlash va boshq.
4.6.	Zo'rayib boruvchi uzoqni ko'rmaslik.	Yaqin masofadan turib mayda narsalarni ajratishda ko'rishning o'ta zo'riqishi.	Kartografiya, ferritlarni elektron mashinalarga yig'ish, qimmatbaho va yarim noyob toshlarni ishlash va sifatini tekshirish, soat yig'ish, optik asboblarni sozlash ishlari va boshq.
4.7.	O'pka emfizemasi.	Ishlash jarayonida muntazam zo'riqqan ekspiratsiya.	Puflaydigan cho'g'u asboblari o'ynashga aloqador ishlar, shisha buyumlarini mexanizatsiyasiz puflab ishlab chiqarish.
4.8.	Nevrozlar.	Ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarni bevosita uzoq vaqt parvarish qilish.	Tibbiy xodimlarning ruhiy xastaliklar shifoxonalari ishlatishi, shu jumladan, ruhiy xastaliklarga uchragan bolalarga qaraydigan maxsus maktablarning o'qituvchilari va xodimlari.
5.	Biologik omillar keltirib chiqaradigan xastaliklar.		
5.1.	Ish vaqtida kontaktda bo'ladigan xodimlardagi kuzatiladigan infeksiyalarga aloqador yuqumli va parazit xastaliklar; sil, brutsellyoz, kuydirgi, kana ensefaliti, ornitoz, sut sog'uvchilar qo'lidagi tugunlar, toksoplazmoz, virusli gepatit, teri mikozlari, Rozenbax erizipeloidi, qichima, zaxm va boshqalar.	Infitsirlangan material, yuqtirilgan yuqumli bemorlar yoki kasallik tarqatuvchi, kasal hayvonlar, hayvonot yoki o'simlik mahsulotlari (teri, jun, ot yungi, go'sht, xom ashyo, don, paxta va boshq.) bilan kontaktda bo'lish; kemiruvchilar, urug' sepilgan tuproq, yerto'la sharoitlarida kontaktda bo'lish.	Yuqumli kasalliklar shifoxonalari ishlatish, veterinariya xizmati, silga qarshi kasalxonalarida ishlash, mikrobiologiya laboratoriyalarida ishlash, chorvachilik xo'jaliklarida, vrachlik uchastkalarida, qushxonalar, konditer va konserva fabrikalarida va zavodlarda ishlash; teri va mo'yna xom ashyosiga ishlov berish, kemalarda baliq ovlash, baliq sanoati korxonalarida ishlash; o'rmonlar sharoitlarida, konlarda ishlash va boshq.
5.2.	Teri va shilliq pardalar disbakteriozi, kandidomikoz, visseral kandidoz.	Antibiotiklar, protsudent zamburug'lar, oksil vitamin konsentratlari (OVK), ozuqa achiqilari, kombikormlar.	Mikrobiologiyaning turli tarmoqlarida ishlash; 3-ustunda ko'rsatilgan moddalarni tibbiyot sanoati korxonalarida, dorixona muassasalari va boshqa muassasalarda tibbiy amaliyotda qo'llash.
6.	Allergik kasalliklar: kon'yunktivit, rinit, rinofaringit, rinofaringolaringit, rinosinusit, bronxial astma, astmatik bronxit, ekzogen alveolit, dermatit, ekzema, toksikodermatit, Kvinke shishi, eshak yemi, anafilaktik shok, toksikoallergik gepatit, markaziy va periferik asab tizimi zararlanishlari va boshqalar.	Allergenlar - kimyoviy moddalar, sintetik polimerlar, smolalar, laklar, bo'yoqlar, yuvuvchi moddalar; metall va uning birikmalari (xrom, nikel, kobalt, marganets, beriliy, platina,	Sanoatning turli tarmoqlari (kimyo, kimyo-farmatsevtika korxonalar), qurilish, yog'ochga ishlov berish sanoati, mashinasozlik, to'qimchilik, yung cho'tka, mo'yna tayyorlash korxonalar, kombikormlar, oksilvitamin konsentratlarini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

		<p>sirkoniy, kumush, oltin va boshqalar), formaldegid, epixlordegin, skipidar va efir moylari, xloramin, ftalmalein angidridi, geksametillendiamin, xlorbenzol, sianitlar, moylovchilar, kantaks, tiuram; niazon D, xlorlangan naftalinlar, furanlar, akrilonitril, aminlar, etilleniminlar, pestitsidlar va boshq. Dori preparatlari: vitaminlar, antibiotiklar, novokain, neyroleptiklar, brom, furatsillin qatori preparatlari, sulfanilamid preparatlari va boshq., biologik tabiatli moddalar: zardoblar, vaksinalar, gormonlar, fermentli preparatlar, mikrobl, zamburug` kulturalari, oksil-vitaminli konsentratlar, kombikormlar (omuxta ozuqalar), ekskretlar, hasharotlar ekskretlari va zaharlari, ilonlar, gelmintlarning ekskretlari va zaharlari: - o`simlik va hayvonot changlari (don, un, yog`och, jun, yung, pat, soch, ipak, paxta, tamaki, choy, o`simliklar changi) va boshq.</p>	<p>dinitro ishlab chiqarish, qishloq xo`jaligi, (parrandaxonalar, fermalar, pestitsidlar bilan ishlash va boshq.); transport; maishiy xizmat ko`rsatish korxonalarida ishlash (kiyim tozalash, sartaroshxonalar, kirxonalar va boshq.); tibbiyot va dorixona muassasalarida (laboratoriyalarda, sanoat korxonalarida va boshq.), vivariylarda ishlash.</p>
<p>7.</p>	<p>O`smalar: a) teri o`smalari (giperkeratozlar, epiteliomalar, papillomalar, rak, leykokeratozlar); b) og`iz bo`shlig`i va nafas a`zolari o`smalari; v) jigar o`smalari; g) me`da raki; d) leykozlar; e) siydik pufagi o`smalari (papillomalar, rak); j) suyak o`smalari.</p>	<p>Toshko`mir, neft, qotishmalarni qayta haydash mahsulotlari (smola, pek, afenatren, antratsen, fenatren, aminoantratsen moy azobirikmalar hosilalari; gudron, parafin va boshq.) ionlashtiruvchi nurlar (rentgen, gamma nurlar va boshq.) ta`sir ko`rsatishi. Nikel, xrom, mishyak, toshko`mir smolalarining birikmalari; asbest, asfalt, uglevodorodlar bilan adsorbirlangan radioaktiv ruda va changda nafas olish. Plutoniy, toriy, poloniy (jigar to`qimasiga trop moddalar: vinillorid, radioaktiv moddalar bilan uzoq muddat kontaktda bo`lish). Olti valentli xrom birikmalari. Benzol, ionlashtiruvchi radiatsiyaning turli xil ta`sir ko`rsatishi.</p>	<p>3-ustunda ko`rsatib o`tilgan moddalarning ta`sir etishiga aloqador barcha ishlar, sanoatning turli sohalaridagi ishlar. Radioaktiv moddalar, boshqa ionlashtiruvchi nurlar bilan ishlash. Nikel, mishyak, xrom birikmalarini olish va qo`llanish bilan bog`langan ishlar: radioaktiv rudalar, asbest, asbest tutadigan materiallarni topish, ularni qayta ishlash va qidirish ishlari; sun`iy granit va undan anjomlar tayyorlash, asfalt yotqizishga aloqador ishlar. Vinil-xlorid bilan ishlash, radiokimyo korxonalarida ishlar va boshq. Xrom birikmalarini ishlab chiqarish bo`yicha ishlar. Benzol va ionlashtiruvchi nurlar manbalari bilan ishlash. Sanoatning turli tarmoqlarida, radiologik va radiokimyo laboratoriyalarida ishlash. Radiokimyo korxonalarida, radiologik va radiokimyo laboratoriyalarida ishlash.</p>



E-Conference Series
 Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

		Benzol va naftalin qatori aminlari (benzidin, dianizid, naftalamin va boshq.).	
		Osteotrop radioaktiv moddalar (radiy, stronsiy, plutoniy) bilan uzoq vaqt kasbiy muloqotda bo'lish.	

Kasb kasalliklari ro`yxatini qo`llashga doir

YO`RIQNOMA

1. Kasb kasalligiga tashhis qo`yishda, bajariladigan ishlar yoki uning kasbga aloqadorligida, ishga qobiliyatlik ekspertizasida, tibbiy va mehnat salomatlikni tiklash masalalarini hal etishda, shuningdek xodimlar sog`lig`iga yetkazilgan zararni korxonalar va tashkilotlar tomonidan qoplashga aloqador masalalarni ko`rib chiqishda kasb kasalliklari ro`yxati asosiy hujjat hisoblanadi.

2. Ro`yxatga faqatgina noxush ishlab chiqarish omillari (pnevmokoniozlar, tebranish kasalligi, zaharlanish va boshq.) ta'sir ko`rsatishi tufayli kelib chiqadigan kasb kasalliklari, shuningdek muayyan noxush ishlab chiqarish omili - kasb omili ta'sir ko`rsatishiga aloqador ekanligi va organizmda xuddi shunday o`zgarishlar (bronxit, allergik kasalliklar, katarakta va boshqalar)ning rosmansa ta'siri keltirib chiqargan boshqa xastaliklar kiritilgan.

3. Mazkur xastalik kasbga aloqador ekanligi to`g`risidagi masalani hal etishda tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan kasallik klinik kechishi shaklining tavsifini, etiologik omil va bajariladigan ishlar turini, staj, muayyan ishlab chiqarishdagi konkret mehnat sanitariya-gigiyena sharoitlarini hisobga olish zarur.

Ish joylari kimyoviy moddalardan ifloslanmaganligi maxsus tekshiruv usullari va yetarli miqdorda o`tkazilgan sinovlar bilan isbotlangan bo`lishi lozim. Agar ishlab chiqarish muhiti va noxush ishlab chiqarish omillari darajasi mutlaqo tekshirilmagan bo`lsa, bu hol kasb kasalligi tashhisini aniqlash uchun to`squinlik qilmaydi. Bunday hollarda kasb kasalligining klinik belgilari yaqqol ifodalangan bo`lsa, dinamikada kasallikning zo`rayishi kuzatilsa va uzoq ish staji bo`lganda kasb kasalligining tashhisini qo`yish mumkin.

Shuni hisobga olish kerakki, mazkur hujjatda bajariladigan ishlar va korxonalar, shuningdek kasallikni keltirib chiqaruvchi etiologik omillarning faqatgina taxminiy ro`yxati keltirilgan xolos.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

4. Klinik-ekspertlik xulosa chiqarishga, shuningdek kasb kasalliklarining erta va ancha vaqt o'tgandan keyin ro'y beradigan asoratlari (masalan, uglerod oksiddan zaharlangandan keyin yuz beradigan markaziy asab tizimining barqaror organik o'zgarishlari) ham kasb kasalliklari qatoriga kiradi, zararli omil (masalan: kechki silikoz, siydik pufagi papillomasi va boshqalar) bilan muloqot to'xtatilgach, ancha vaqt o'tgandan so'ng kasb kasalligi rivojlanish ehtimoli borligini ham hisobga olish zarur, kasb kasalligi ro'y bergan sharoitda (masalan, pnevmokonioz va chang tufayli rivojlangan o'pka raki) paydo bo'lgan xastaliklar ham kasb kasalliklari jumlasidandir, bu esa bronxlar shillig'ida bir xil gistologik o'zgarishlar (odatda, yassi hujayrali rak rivojlanishi bilan yuz beradigan displaziya elementlari bo'lgan tarqoq metaplaziya) borligi bilan tasdiqlanadi.

Kasb kasalligining regressiyasi kuzatilsa ham (masalan, o'tkir va surunkali zaharlanishlar, vibratsion kasalligi, teri kasalliklari, allergik xastaliklar va boshqalar) ishchini avvalgi o'z ishiga qaytarish mumkin emas va uni boshqa kasbga o'rgatish tavsiya qilish zarur.

5. Agar ro'yxatda ko'rsatib o'tilgan kasb kasalligi kasbga daxli bo'lmagan xastalikni kuchaytirib, turg'un mehnat qobiliyatini yo'qotishga olib kelsa, ishga qobiliyatsizlik sababi kasbga aloqador deb hisoblanishi lozim.

6. O'tkir kasb kasalligi tashhisi (zaharlanishlar) tegishli SESdagi profpatologiya bo'yicha mutaxassis va mehnat gigiyenasi bo'yicha vrach bilan albatta maslahatlashgandan keyin, har qanday davolash-muhofaza muassasasining vrachi tomonidan qo'yilishi mumkin. O'tkir kasb kasalligi (zaharlanish) to'satdan paydo bo'ladi, u kimyoviy moddalardan ish maydonidagi havoda nisbatan yuqori konsentratsiyasi va boshqa noxush omillar bir marta (ko'p deganda bir ish smenasida) ta'sir o'tkazgandan so'ng yuzaga keladi. Yuqumli kasalliklar sababli paydo bo'lgan (virusli gepatit, brutsellyoz, kuydirgi, oziq-ovqat ensefaliti va boshqalar) kasallikning bemor kasbga aloqadorligini aniqlash zararlanish o'chog'ida yuqumli xastalik hodisasining epidemiologiyasining tekshiruvini o'tkazayotgan hududiy SES vrach epidemiologi tomonidan amalga oshiradi.

7. Surunkali kasb kasalligi (zaharlanish) tashhisini 2-TOSHDavTI kasb kasalliklari kafedrasida va Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari Ilmiy tekshirish instituti qoshidagi vrachlik konsultativ komissiyasi qo'yishga haqli hisoblanadi. Zararli ishlab chiqarish-kasb omillarining uzoq muddat ta'sir o'tkazishi natijasida paydo bo'lgan xastaliklar surunkali kasb kasalliklari qatoriga kiradi. Kasb kasalligini belgilashda tashhisdan keyin (qavs ichida) zararlanishning asosiy



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

belgilarini va zararlangan a'zolar funksional faoliyatining buzilish darajasini ko'rsatish kerak.

8. Tibbiy-mehnat ekspertizasi amaliyotida shuni hisobga olish kerakki, kasallik kasb kasalligi ekanligining tan olinishida hamma vaqtda ham mehnat qobiliyati buzilishi shart emas. Kasb kasalliklari va zaharlanishlarning boshlang'ich shakllarida ishlash qobiliyati haqidagi xulosa faqat ayni muayyan ishlab chiqarish sharoitlarida ishni to'xtatish haqida tavsiya berish va malaka hamda ish haqini kamaytirmasdan oqilona zararsiz sharoitli ishga joylashtirishdan iborat bo'lishi mumkin.

Kasb kasalligi bo'yicha nogironlik guruhini belgilash huquqi va ishlash qobiliyatining necha foiz yo'qotilganligini aniqlash tibbiy-mehnat ekspertizasi komissiyalari zimmasiga yuklatilgan.

9. Kasb kasalligi borligini aniqlash va kasb kasalliklari ro'yxatidan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tekshirish instituti va 2-TOSHDavTI klinikasi qoshidagi vrachlik-konsultativ komissiyasi va Sog'liqni saqlash vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

Internet saytlari ro'yxatlar

1. www.med.uz
2. www.lex.uz
3. www.wikipedia.uz
4. www.medicum.ru
5. www.medtext.ru
6. www.doktor.ru
7. www.mirmed

